O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING QARORI

Navoiy sh., Amir Temur.k 4.

2022 - yil 26 - noyabr 297-5-79-Q/22 Navoiy shahar hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning 10, 12-bandlari va Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati Navoiy shahar filialining 2022-yil 31-oktabrdagi 01-15/977-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati Navoiy shahar filiali (X.Babajanov), ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Mazkur qaror “Navoiy ziyosi” gazetasi tahririyatida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (lavozimiga ko‘ra) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **M.Egamqulov**

Navoiy shahar hokimining
2022 yil 26 noyabrdagi
297-5-79-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlovlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek, rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20 yanvardagi 18-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar, (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy- joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

4. Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi arxivida saqlanadi.

5. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga ariza bilan murojaat qiladi.

6. Arizalar shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reyestriga qayd qilinadi.

7. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar

joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘ma jildining har bir varag‘iga shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi rahbari tomonidan asliga to‘g‘ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.